

**Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining korrupsiya faktlariga doir
murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi**

HISOBOT

(2025-yil davri)

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining 2022-yil 5-avgustdagi 31-1-p-son buyrug'i (4-ilovasi) bilan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda uning bo'linmalari va tizim tashkilotlariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti tasdiqlangan.

Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan yo'l qo'yilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar ustidan xabar berish uchun aloqa kanallari – (@anticor_miit_bot, vazirlikning rasmiy veb sayti (https://gov.uz/miit/activity_page/anti_corruption/), Ishonch telefoni (+998 71 238-50-05;), facebook ijtimoiy tarmog'idagi sahifa (anticormiit), instagram (anticormiit), elektron pochta manzili (anticor@miit.uz, info@miit.uz;)) ishga tushirilgan.

Kelib tushgan xabarlar va murojaatlar yuqoridagi reglament talablari, vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar talablari hamda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni talablari doirasida ko'rib chiqiladi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining 2024-yil 17-iyuldagi 72-i-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa ko'maklashgan xodimlarning xavfsizligi kafolatlari va rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi nizom bilan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish va ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlari belgilangan.

2025-yil davomida vazirlikka xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari ustidan xabar berish bo'yicha aloqa kanallari orqali murojaatlar kelib tushmagan.

Mazkur murojaatlarni ko'rib chiqish va kelgusida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik yuzasidan tegishli profilaktik va tushuntirish ishlari amalga oshirilgan va inson omili mavjud sohalarni raqamlashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilib, umumiy nazorat va monitoring ishlari doimiy amalga oshirib borilishi belgilab olingan.

Vazir o'rinbosari



X.Teshabayev